

2025-yil, fevral 4-son



# Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературы – Language and literature teaching» (e-mail:tilvaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>



**BUYUK SHOIR, QOMUSIY OLIM,  
DAVLAT ARBOBI VA MOHIR SARKARDA  
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR  
TAVALLUDINING 542 YILLIGI**

yondashuvi keyingi epik va dramatik adabiyotga asos bo'ldi.

**Xulosa.** John Milton ingliz adabiyotining eng muhim shaxslardan biri bo'lib, uning ijodi she'riyat, falsafa va siyosatga katta ta'sir ko'rsatgan. "Para-

dise Lost" asari epik adabiyotning cho'qqilaridan biri sanaladi va bugungi kungacha o'rganilmoqda. Miltonning siyosiy qarashlari ham zamonaviy demokratiya tamoyillariga hissa qo'shgan. Uning ijodi va adabiyotga ta'siri abadiy bo'lib qoladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Milton, J. (1667). Paradise Lost. London: Samuel Simmons.
2. Milton, J. (1671). Paradise Regained & Samson Agonistes. London: John Starkey.
3. Hill, C. (1977). Milton and the English Revolution. Viking Press.
4. Lewalski, B. (2000). The Life of John Milton: A Critical Biography. Blackwell Publishing.
5. Campbell, G., & Corns, T. (2008). John Milton: Life, Work, and Thought. Oxford University Press.
6. Jalilovna, K. S. (2022). Common Similarities and Differences of Uzbek and English Fairy Tales. European Journal of Innovation in Nonformal Education, 2(1), 366-369.
7. Jalilovna, K. S. (2022). COMPARATIVE ANALYSIS OF UZBEK AND ENGLISH FAIRY TALES. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 80-83.
8. Jalilovna, K. S. (2022, February). A CASE STUDY ON VOCABULARY LEARNING THROUGH READING FAIRY TALES. In E-Conference Globe (pp. 5-6).

**Zilola SHUKUROVA,**  
*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, PhD*

## O'RTA OSIYO – HINDISTON ADABIY ALOQALARINI ORGANISHDA BAYOZLARNING O'RNI

**Annotatsiya:** ushu maqolada O'rta Osiyo bilan Hindiston munosabatini mustahkamlashda Zahiriddin Muhammad Boburning o'rni va uning adabiy aloqalarga ta'siri masalasi bayozlarda aks etishi hind shoiri Bayramxon misolida tahlil etilgan.

**Аннотация:** в данной статье на примере индийского поэта Байрам-хана анализируется роль Захириддина Мухаммада Бабура в укреплении связей Средней Азии и Индии и его влияние на литературные связи.

**Annotation:** this article analyzes the role of Zahiriddin Muhammad Babur in strengthening relations between Central Asia and India, and the impact of his influence on literary relations reflected in the Bayazes, using the example of the Indian poet Bayram Khan.

Ma'lumki, O'rta Osiyo va Hindiston munosabati eramizdan avvalgi davrlarga taqalib, hind mollari Amudaryo orqali Kaspiy va Qora dengizga va undan Yevropaga olib o'tilgan. Shunga ko'ra O'rta Osiyo xalqaro savdo-sotiq va boshqa masalalarda muhim ko'priq vazifasini o'tab, bu jarayon ikki davlat o'rtasidagi aloqalarning doimiy ta'minlanishiga zamin yaratgan.

Hindiston bilan iqtisodiy aloqalarning rasman yo'lg'a qo'yilishi Amir Temur davriga to'g'ri keladi. Shohruh zamonida yo'lg'a qo'yilgan rasmiy aloqalar Zahiriddin Muhammad Bobur davriga kelib yangi bosqichga ko'tarildi. Hindistonga o'tgan asrlarda borib muqim bo'lib qolgan O'rta Osiyoliklarning mahalliylashuvi hamda Boburning Hindistonda ularga ko'rsatgan alohida lutf va marhamati tufayli XVI asr adabiyotida Mavarounnahr va Hindiston

adabiy aloqalari ancha kengaydi. "Hindiston forsiy adabiyotning tarqalishida muhim o'rinni egallaydi. Bu tarqalish Mahmud G'aznaviyning 390/1000-yilda bu hududga bostirib kirishi bilan bog'liq. XVI asrda Hindistonda adabiyotning rivojlanishining yangi bosqichi boshlandi va u O'rta Osiyodan Boburning buyuk mo'g'ul imperiya-sining tuzishi bilan bog'liq"<sup>1</sup>. Haqiqatda ham, Hindiston bilan aloqalarning jadallahuvi Zahiriddin Muhammad Boburning Hindistonne zabit etishi bilan boshlanadi. Aynan shu davrdan e'tiboran, O'rta Osiyo va Hindiston o'rtasidagi aloqalar mustahkamlandi. Bobur ko'plab choparlar orqali O'rta Osiyolik ilm-fan va kasb-hunar egalarini yashash uchun Hindistonga taklif qilib, ularga yaxshi hayot va'da qilgan. Ayniqsa, ilm ahli va shoirlarga hukmdor tomonidan alohida ehtirom ko'rsatilgan. Mamlakatni mu-

<sup>1</sup> Норик Б. Биобиблиографический словарь среднеазиатской поэзии (XVI – first third XVII). – Москва. Издательский дом Марджаний, 2011. с 42.

sulmon hukmdor boshqarishi va ular tomonidan berilgan keng imkoniyatlar O'rta Osiyolik shoirlar oqimini kuchaytirdi. Bu esa hind xalqining tili, madaniyati, adabiyotiga ta'sir qilmay qolmas edi. "Mazkur davr adabiy taraqqiyoti bosqichining xarakterli tomonlaridan biri bo'lgan hind va musulmon madaniyatining chatishuvi, XI-XIV asrlarda Hindistonda forsiy va keyinchalik turkiyzabon adabiytining rasman vujudga kelishi hamda rivoj topishiga muayyan shart-sharoit yaratdi"<sup>2</sup>.

"Hindistonda ham O'rta Osiyo va Eron kabi forstojik tilining rasmiy davlat tili deb e'lon qilinishi, ilm-fan, adabiyotning mazkur tilda yaratilishi O'rta Osiyo-Hindiston xalqlari o'tasidagi asriy madaniy aloqalarni yanada jonlantirib yubordi"<sup>3</sup>. Natijada ikki xalq o'tasida adabiy do'stlik rivojlanadi. Bundan tashqari, Boburiylar sultanati boshqaruvida turkiy tilda ijod qiladigan shoirlarning ham borligi bu yerda turkiy-forsiy adabiyotning rivojlanishida muhim turtki bo'ldi. Saroy amaldorlari orasida mahoratlari shoirlar ham bo'lib, fors-tojik, turkiy hamda hind tillari da baravar ijod qilib, go'zal baytlar tuzishgan. Mana shunday shoirlardan biri Bayramxon she'riyati dovrug'i nafaqat Hindistonda, balki O'rta Osiyoga qadar yetib kelib, ko'plab bayozlardan o'r'in olgan. Bayramxonning shaxsiyati hamda faoliyati haqida manbalarda ma'lumotlar berilgan. Ularning deyarli barchasida Bayramxon mohir sarkarda sifatida ta'riflanadi. 16 yoshidan boshlab Humoyun Mirzoga xizmat qilgan va keyinchalik Akbarshohga vasiy ota bo'lgan bu sarkarda janglar davomida juda ko'p g'alabalarga erishgan. Bundan tashqari, u shoirlarga homiy ham bo'lib, saroyda forsiy-turkiy she'riyat rivojiga muhim hissa qo'shgan. Bu esa Hindistonda adabiyotning ravnaq topishiga sabab bo'ldi.

Manbalarda Bayramxonni boburiylar sulolasining rivojiga katta hissa qo'shgan asosiy siyosiy shaxslardan biri deya tahlil etilsa-da, uning shoir sifatida ijodiy faoliyatiga yetaricha baho berilmagan. "Adibning nomi Yevropada dastlab "loxannes de Lita" asarida hamda 1877-yilda "Oyinai Akbary"ning ingliz tilidagi tarjimasi uchun yozilgan sharhda qayd etilgan. Sobiq Ittifoqda esa Bayramxon, asosan, yetuk siyosatdon, uning sermazmun adabiy merosiga nisbatan ilmiy munosabat, nari borsa, ayrim maqola va nashrlar bilan chegaralangan"<sup>4</sup>. Demakki, sarkardaning shoirlilik faoliyati doirasi deyarli tadqiq etilmagan. Bizni Bayramxon ijodining O'rta Osiyoda tuzilgan bayozlarda ko'p uchragani sababli uning shoirlilik faoliyati ko'proq qiziqtiradi.

Manbalarda berilishicha, Bayramxon bir vaqtning o'zida turkiy, forsiy tilida ijod qilish bilan birga hind tilida ham bemalol she'rlar bita olgan zullisonayn shoirlar sirasiga kirgan. Uning bu iste'dodi nafaqat mohir sarkarda, balki iste'dodli shoir ham bo'lganligini tasdiqlaydi. Zullisonaynlik an'anasi hind diyorlarida ijod qilgan deyarli

barcha shoirlarga xos xususiyatdir. Hasanxoja Nisoriy unga "Shakkar sochuvchi ta'b to'tisi bor" Bayramxon xoni xonon Hindistonda Bobur ishtirokidagi adabiy muhit ruhida voyaga yetgan ilk mahalliy turkiygo'y shoirlardan biridir" deya baho beradi. Ushbu ta'rif Bayramxonning shoir sifatida o'z davrida taniqli bo'lganligini ko'rsatadi. Bayramxon she'r yozish bilan cheklanmasdan, Mavarounnahr va Eronda bo'layotgan adabiy jarayonlar bilan qiziqib, muntazam kuzatib borgan va bevosita Hind diyorida adabiyotni rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarini ishga solgan va o'zi ham bir-biridan go'zal va betakror g'azallar yozgan. Masalan: 3326 raqamli bayozda shoirning quyidagi g'azali beriladi:

### غزل بيرام

گر بر ازم شعله از دل دهان می سوزدم

گر نهان دارم درون سینه جان میسوزدم

(Gar yurakdag'i shu'lani sir tutsam,  
og'zim kuydirmoqda,  
Gar uni qalbim ichida yashirsam,  
jonim kuydirmoqda)

فی المثل گویا زبان من سخن کز جگر است

بسکه شرح آتش عشقت زبان میسوزدم

(Mening so'zim jigardan chiqqan kabidir,  
Ishqing otashi sharhi tilimni kuydirmoqda).

روز شب از دود آه آتش دل روشن است

این که عشقت آشکار او نهان میسوزدم

(Tun-u kun faryodning tutuni ila yurakdag'i  
olov ravshandur.

Ishqing meni oshkora, u bo'lsa,  
zimdan kuydirmoqda).

از وجود مانده مشتى استخوانى و هنوز

داغ هجران تو مغز استخوان میسوزدم

(Vujudimdan bir musht tuyak qolgan bo'lsa-da,  
Sening hijroning suyagimning mag'zi-mag'zigacha  
kuydirmoqda)

بیر ما آن بلبلی خانمانم در فراق

کز دل پرسوز هر شب آشیان میسوزدم

(Ey Bayram, u xonumonimning bulbuli firoqdadur,  
G'am bilan to'la yuragim tufayli har kecha  
oshiyonim kuymoqdadur).

Ushbu g'azal ramali musammani mahzuf vaznida yozilgan bo'lib, mavzusiga ko'ra oshiqona g'azal

2 Низомиддинов Н. Ҳиндистон туркйзабон адабиёти. – Тошкент: 2005. 8 б.

3 Низомиддинов И. Ўзбекистонда Ҳиндистон илмий-маданий меросини ўрганишга доир. – Тошкент: Ўзбекистон, 1987. 3 б.

4 Низомиддинов Н. Ҳиндистон туркйзабон адабиёти. – Тошкент, 2005. 24 б.

turkumiga kiradi. G'azal bir nechta badiiy san'atlarga boy bo'lib, shoir she'riyatning nozik jihatlarini payqay olgan. Unga ko'ra oshiq yurakdagi sirlarini sir tutsa, og'zini kuydirishi, qalb ichida yashirsa jonini kuydirishi tasviri mubolag'aning ig'roq turini hosil qilgan. Ya'ni oshiq bechora ishq sirini aytsa tili, aytmasa dili kuyadigan qiyin ahvolda. Xuddi shu misralar husni ta'lil san'atining yuzaga kelishida ham zamin yaratgan. So'zning chiqishini jigardan chiqishiga o'xshatib tashbeh san'atining go'zal va noan'anaviy namunasini yaratgan. Shu baytdagi *kun-u tun, oshkora-zimdan* juftliklari tazod san'atining yaralishiga sabab bo'lgan. *Tutun, olov, kuydirmoq; bulbul, oshiyon; g'am, yurak, firoq* kabi bir-biriga yaqin ma'noli so'zlari tanosib san'atni hosil qilgan. Bayramxon g'azallarini go'zal tashbehlar va badiiy san'atlar bilan boyitganligi sababli O'rta Osiyolik muxlislari tomonidan ham iliq kutib olingan. Shoir o'limidan so'ng ham uning she'rlari kitobxonlar

qo'lidan tushmasdan XIX asrda tuzilgan bayozlardan o'rinni olsin. Bu esa ko'p asrlar davomida Hindiston va O'rta Osiyo shoirlari o'ttasida adabiy aloqalarning doimiy rivojlanganini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, O'rta Osiyo – Hindiston munosabati siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalarni qadimdan yo'lga qo'ygan hamkor davlatlar bo'lib, bu aloqalar Zahiriddin Muhammad Bobur davrida taraqqiy etdi. Ikki davlat o'ttasida hamkorlikning mustahkamlanishi natijasida adabiy aloqalar gullab-yashnadi. Oqibatda turkiy shoirlarning hind adabiyotiga ta'siri kuchayib, hattoki Movarounnahr uslubi ta'sirida sabki hind uslubi shakllandi. Xuddi shuningdek, hind shoirlarining ham o'zbek mumtoz adabiyotiga ta'siri kuchli bo'lgan. Bu, eng avvalo, XX asrgacha yaratilgan bayozlar tarkibida hind xalqi shoirlarining ijod namunalari salmoqli ekanligidan hamda tazkiralarda hind shoirlari haqida ma'lumotlarning kiritilganidan yaqqol sezildi.

### Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Абдуллаев В. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент, 2019.
2. Низомиддинов Н. Ҳиндистон туркизабон адабиёти. – Тошкент, 2005.
3. Низомиддинов И. XVI-XVIII асрларда Ўрта Осиё – Ҳиндистон муносабатлари. – Тошкент: Фан, 1966.
4. Низомиддинов И. Ўрта Осиёнинг чет эл шарқи билан муносабатлари. – Тошкент: Ўздавнашр, 1961.
5. Норик Б. Биобиблиографический словарь среднеазиатской поэзии (XVI – first third XVII). – Москва: Издательский дом Марджани, 2011.
6. Низомиддинов И. Ўзбекистонда Ҳиндистон илмий-маданий меросини ўрганишга доир. – Тошкент: Ўзбекистон, 1987.

**Dilrabo KOSHEVA,**  
*Nizomiy nomidagi TDPU dots.v.b., PhD*  
*kosheva.88@inbox.ru*

## OLIY TA'LIM AUDITORIYA DISKURSIDA ADABIY ME'YOR CHEGARASI

**Annotatsiya:** mazkur maqolada oliy ta'lif auditoriyasidagi diskursda adabiy me'yorlarning ahamiyati, ortologik xususiyatlari va ularning o'qituvchi hamda talaba nutqiga ta'siri tadqiq etiladi. Auditoriya muloqotida ortologik me'yorlarga rioya qilishning ta'lif jarayoniga ta'siri ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ortologik tadqiqotlarning lingvistik va pedagogik jihatlari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** *auditoriya diskursi, adabiy me'yor, ortologiya, nutq madaniyati, til me'yorlari, o'qituvchi nutqi, talaba nutqi.*

**Аннотация:** в данной статье рассматривается значение литературных норм в дискурсе аудиторий высшего образования, их ортологические особенности и влияние на речь преподавателей и студентов. Анализируется влияние соблюдения ортологических норм в аудиторном общении на образовательный процесс. Кроме того, изучаются лингвистические и педагогические аспекты ортологических исследований.

**Ключевые слова:** аудиторный дискурс, литературная норма, ортология, культура речи, языковые нормы, речь преподавателя, речь студента.

**Annotation:** this article examines the significance of literary norms in the discourse of higher education classrooms, their orthological characteristics, and their impact on the speech of teachers and students. The influence of adherence to orthological norms in classroom communication on the educational process is analyzed. Additionally, the linguistic and pedagogical aspects of orthological research are discussed.

**Key words:** *classroom discourse, literary norm, orthology, speech culture, language norms, teacher's speech, student's speech.*



2025-YIL, FEVRAL 4-SON

# Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL  
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ  
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

## Tahrir hay'ati:

Nizomiddin Mahmudov  
Yorqinjon Odilov  
Jabbor Eshonqulov  
Baxtiyor Daniyarov  
Abdurahim Nosirov  
To'lqin Saydaliyev  
Barno Buranova  
Zulkumor Mirzayeva  
Qozoqboy Yo'ldoshev  
Bahodir Jovliyev  
Salima Jumayeva  
Qayum Baymirov  
Manzar Abdulxayrov  
Aljon Safarov  
Husniddin Norqulov  
Odiljon Boynazarov  
Madina Nuriddinova  
Barno Kadirova  
Nargiza Mirzayeva  
Guli Shukurova  
Yuldashev Raxmatov  
Ramziddin Abdusatorov  
Feruza Manukyan  
Gulchexra Kadiyurova  
Gulsanam Xolikulova  
Komiljon Qarshiyev  
Svetlana Umirova  
Xolmo'min Fayzullayev  
Nilufar Namazova  
Dilbar Niyazova  
Sayyora Halimova  
Shaxnoza Yunusova  
Nigoraxon Ro'zibayeva  
Tadjixon Sabitova  
Oqila To'raqulova

## Axborot hamkorimiz:

### TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
NAUCHNO-METODICHESKIY  
ILMIY-METODIK JURNALI

#### Bosh muharrir

Nargiza BERDIYEVA

#### Muharrirlar:

Bibimaryam RAHMONOVA  
Shabnam G'ANIYEVA  
Bonu DO'SMATOVA

#### Sahifalovchi:

Rustambek YUSUPOV

#### Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri  
Navoiy ko'chasi 30-uy.  
Telefon: (93) 759-43-66, (77) 003-34-33,  
(94) 095-96-22, (90) 288-32-92.  
e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com

### Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL  
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ  
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

## MUNDARIJA

### DOLZARB MAVZU

#### Tadjixon Sabitova.

Yangi O'zbekistonda folklor asarlarini  
o'qitishga e'tibor.....2

#### Habibullo Jo'rarev, Islom Jo'rarev.

Navoiy ijodida ijtimoiy taraqqiyot  
omillari ifodasi.....5

**Rayxona Norqobilova.** Ona tili  
darslarida iqtidorli o'quvchilarni aniqlash  
va rivojlantirishning o'ziga xosliklari.....7

### TILSHONOSLIK

**Dildor Eshmuratova.** Ingliz religionim  
birliklarining funksional xususiyatlari.....9

**Dilafruz Buranova.** Kasbiy amaliyot  
tibbiyotda ingliz tili ta'limga kompleks  
yondashuvning muhim omili sifatida...11

**Nilufar Karimova.** Nofilologik ta'lim  
yo'nalishlarida ingliz tilini o'qitishda  
dastur va darsliklarda "Soft skills"ning  
aks etish xususiyatlari.....14

#### Shaxnoza Qo'ldasheva.

Lingvomadaniyatshunoslik haqida ayrim  
mulohazalar.....17

#### Dildor Otajonova.

Og'zaki nutqning ekspert  
xulosalaridagi talqini .....19

#### Ирода Турамуратова.

Классификация чилийских диалектов  
и чилийских языковых зон.....22

#### Агата Осипова.

Мастерство публичных  
выступлений.....26

#### Барно Кадирова.

Роль  
характерообозначающих лексем в  
русском и узбекском языках.....28

### Raushan Torejanova.

Система школьного образования  
в Финляндии: анализ опыта .....30

### ADABIYOTSHUNOSLIK

**Nodira Saidova.** Badiiy matn tahlilida  
germenevtikaning o'ziga xosligi.....32

#### Kamola Ulug'murodova.

Mashrab va Uvaysiy she'riyatida Layli  
obrazining badiiy talqini .....34

#### Normuhammad Ubaydullayev.

Abdulla Qodiriy ruhiyati va xarakter  
yaratish mahorati .....37

#### Feruza Burxanova.

Nazar Eshonqulning "Qo'l"  
hikoyasida fantasmagorik uslub .....39

#### Shaxlo Xalilova.

**Mavjuda Bozorova.** John Miltonning  
ingliz adabiyotidagi o'mni .....42

#### Zilola Shukurova.

O'rta Osiyo –  
Hindiston adabiy aloqalarini  
o'rganishda bayozlarning o'mni .....44

#### Dilrabo Kosheva.

Oliy ta'lim auditoriya diskursida adabiy  
me'yor chegarasi .....46

**Nasiba Bozorova.** Hayot falsafasining  
navoiyona talqini .....49

#### Hoshimjon Ahmedov.

O'zbek  
poeziyasida shakl izlanishlari .....51

#### Nodir Ramazonov.

Alisher Navoiy g'azaliyotida xalq  
o'yinlari tasviri .....54

**Nigora Jamilova. Nabiya Abdullayeva.**  
The main themes expressing virtue in  
"the green mile" .....56

*O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi  
Oliy attestatsiya komissiyasi Rayasatining 2023-yil 3-iyundagi 338/6-soni  
qarori bilan Filologiya, Pedagogika hamda Psixologiya fanlari bo'yicha doktorlik  
dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy  
ilmiy nashrdir. https://oak.uz/pages/4802*